

NISHONOVA XURSHIDA YUSUFJANOVNA

O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

O`zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, tayanch doktoranti

[*khurshidanishonova@gmail.com*](mailto:khurshidanishonova@gmail.com)

Tel:(+998)93-577-13-69

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Alpomish” dostonining o`rtaa ta`lim maktablarning 9-sinf o`quvchilariga tushuntirish va mazkur asarni o`qitishga qaratilgan saboqlarni tashkil etish tamoyillari haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar. *Syujet tahlili, ko`chma motiv, qiyosiy-tipologik ahlil usullari, ijtimoiy ong, fikrlar xilma-xilligi, baholash mezonlari.*

ОБРАЗ НАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ЭПОСЕ

НИШОНОВА ХУРШИДА ЮСУЖАНОВНА

Академия наук Республики Узбекистан

Институт узбекского языка, литературы и фольклора, докторант

[*khurshidanishonova@gmail.com*](mailto:khurshidanishonova@gmail.com)

Телефон: (+998)93-577-13-69

Абстрактный. *В данной статье говорится о принципах объяснения эпоса «Алпомиш» учащимся 9 классов общеобразовательных школ и организации занятий, направленных на обучение этому произведению.*

Ключевые слова. *Сюжетный анализ, мобильный мотив, сравнительно-типологические методы анализа, общественное сознание, многообразие мнений, критерии оценки.*

IMAGE OF THE NATION IN THE NATIONAL EPIC

Abstract. *This article talks about the principles of explaining the "Alpomish" epic to the 9th grade students of secondary schools and organizing lessons aimed at teaching this work.*

Keywords. *Plot analysis, mobile motif, comparative-typological methods of analysis, social consciousness, diversity of opinions, evaluation criteria.*

Inson yaralibdiki, ibratga intilib, tarbiyalanib yashaydi. Tarbiyaning asosiy vositasi esa diniy va dunyoviy bilim bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi ana shu bilimlarning tashuvchisidir. Doston, ertak, rivoyat, maqol, matal, qo‘shiq, topishmoq, xalq o‘yinlari, tez aytish, qasida, lof, askiya kabi xalq og‘zaki ijodi janrlari og‘izdan-og‘izga o‘tib, rivojlanib kelgan. Bunday o‘lmas asarlar xalqimizning ma’naviy hayoti badiiy ifodasi o‘laroq yashashda davom etyapti. Xalqimiz tomonidan “Go‘ro‘g‘li”, “Yozi bilan Zebo”, “Qirq qiz”, “Oshiq g‘arib va Shohsanam” singari o‘nlab dostonlar yaratilgan. Ayni shu dostonlarni o‘rganish xalqimizning ajdodlar xotirasi oldidagi muqaddas burchidir. “*Shu ma’noda, xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostonini millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib keladigan qahramonlik qo‘shig‘idir*”¹.

I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida ma’naviyatimizning bebaho xazinasi “Alpomish” dostoni haqida “*ijodiy tafakkurimiz, ma’naviy boyligimizning yorqin namunasi bo‘lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo‘lib, o‘z*

¹ Islom Abdug‘aniyevich Karimov “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch”. Ma’naviyat. –T., 2010 y. 33-6.

boshiga tushgan qiyinchililarni engib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab bergan"² deyilgan.

“Alpomish” dostonidagi umuminsoniyatga, milliy mafkuramizga oid fikrlar insonga yoshlikdan singdirilishi lozim. Bu kishini barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanishida muhim sanaladi. Shunga ko'ra umumiy o'rta ta'lim “Adabiyot” saboqlari dasturida o'zbek xalq donoligini, ayniqsa, “Alpomish” dostonini o'rganishga alohida e'tibor berilgan.

O'rta maktablarning to'qqizinchi sinflarida dastlab o'rganiladigan birinchi badiiy asar “Alpomish” dostonidir. Dostonni o'rganishga to'rt soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi belgilangan vaqt ichida doston va uning shakllari haqida ma'lumot berishi, darslikdagi parcha bilan o'quvchilarni to'la tanishtirishi, mazkur parchani atroflicha tahlil qilishi, hamda dasturda nazarda tutilganiga ko'ra asardagi badiiy obrazlar haqida o'quvchilarda muayyan tushuncha shakllantirishi kerak bo'ladi. Mubodo, o'qituvchi vaqtdan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lmasa, bu tadbirni bajarishga ulgurmaydi.

Mazkur mavzuni tushuntirishning dastlabki soatida “Alpomish” dostonini kuylagan Fozil shoirning (1872 yilda tug'ilgan) hayoti va ajdodlari haqidagi ma'lumotlarni keltirish kerak. Fozil shoir hozirgi Jizzah viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog'ida tug'ilib, yetimlikda o'sgan. Tirikchilik uchun cho'ponlik qilishga qaramay, bolalik yillaridayoq do'mbira jo'rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan. U Fozil shoirning keyingi hayotida kim bo'lishini belgilab bergan.

Fozil Yo'ldosh o'zining betakror iste'dodi bilan qirqdan ortiq xalq dostonlarining badiiy barkamolligiga hissa qo'shgan.

“Alpomish” dostoni 1928 yil Mahmud Zaripov tomonidan yozib olingan. Keyinchalik ushbu badiiyat namunasini shoir Hamid Olimjon qayta ishlangan. Unda o'zbek xalqining azal-azaldan imon-e'tiqod, or-nomus va yurt birligi yo'lida o'zini ayamasi badiiy ifodasini topgan. 1999-yilda doston yaratilganining ming yilligi nishonlangan bo'lsa-da, doston tarixi undanda uzoqroq o'tmishga borib

² Islom Abdug'aniyevich Karimov “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch”. Ma'naviyat. –T., 2010 y 34-6.

taqaladi. o'qituvchi bu ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazishiga 4-5 daqiqa sarflaydi. Shundan so'ng o'quvchilar doston matni bilan tanishadilar. Dostonda berilgan parchani o'qituvchi o'zi o'qib bergani ma'qul. Negaki, garchi o'quvchilar nutqi rivojlangan bo'lsa-da, dostondagi ayrim ma'nodor jumlalarning ohangi, ma'no urg'ulariga e'tibor qilmasligi doston badiiy jozibasiga putur etkazishi mumkin. o'qituvchi maktab darsligidan foydalangani durust emas. Dostonning aslidan mutolaa qilinishi birinchidan, o'quvchining diqqatini tortsa, ikkinchidan bu qo'llanma mavzu uchun ko'rgazma vazifasini o'taydi.

O'quvchilarni darslikdagi parchaning bir qismi bilan tanishtirguncha 22-23 daqiqa vaqt ketadi. Demak o'qituvchi 29-30 daqiqa orasida "Alpomish" dostoni matni va uning ijodkori, doston haqidagi nazariy ma'lumot va doston tarixiga oid ma'lumotlarni ham berishga ulguradi. Birinchi saboqning so'nggida uyga vazifa sifatida dostondan olingan parchani qayta o'qish va o'ziga yoqqan parchani adabiyot daftariga belgilab olishni topshiriq qilib beradi.


«Alpomish» dostonini bag'ishlarga mashg'ulotning **ikkinchi soatida** dostonning qolgan qismi o'qiladi. Mutolaa uchun o'qituvchi 14-15 daqiqa vaqt sarflaydi. SHundan so'ng dostondagi ismlar ajratib olinadi. Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo'ri, Boysari, Hakimbek, Qaldirg'och, Barchin va shu singari boshqa ismlar ham.

Dobonbiy dobon so'zidan olingan bo'lib, hayotdagi muayyan qarshilikni bosib o'tgan shaxs ma'nosini bildiradi. Qo'ng'iroq, Boysun yurti ishtimoiy hayotidagi o'zgarishlar Dobonbiydan boshlanadi. Alpinbiy – Qo'ng'iroq – Boysun yurtidagi yangi avlodning 1-vakili. Biylik Dobonbiydan meros bo'lib o'tgan va boshqarish huquqini beruvchi unvon hisoblanadi. Boybo'ri ismidagi "boy" – "oq", "katta" degan ma'noni bildiradi va bu ism turkiy xalqlarning totemiga ishora qiladi. Boysari ismidagi "sari" so'zi esa tepalik ma'nosini beradi. Bu ismning ikki xil ma'nosi bor. Biri "oqtepa", ikkinchisi "kattatepa", ya'ni bu har ikki obrazning zamiridagi buyuklikni ifodalaydi. Hakimbekning istilohiy ma'nosi ham Allohga yaqinlashgan ma'rifatli shaxs ma'nosida keladi. Qolaversa, Hakim Allohning ismlaridan biridir. o'qituvchi har bir ismning istilohiy jihatdan asoslar ekan,

asardagi ramziy o'rnini ham belgilab ketishi kerak. Masalan Qorajon – ulug'lik, Qaldirg'och – ezgulik elchisi, Tovka oyim – Laqmalik, YOrtiboy – sotqinlik ramzi ekanini yetkazish zarar qilmaydi.

O'qituvchi ismlarni tahlil qilishga 15 daqiqa sarflaydi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi uyga vazifa sifatida dostonidan parchani qayta o'qib, asar syujetidagi asosiy nuqtalarni belgilab kelishni va avlodlar shajarasini tuzishga urinishlarini topshiriq sifatida beradi. Shajara taxminan mana bunday shaklda bo'lishi mumkin.

Alpomish shajarasi



“Alpomish” dostonining o‘zlashtirilishiga qaratilgan **uchinchi mashg‘ulotda** o‘qituvchi dostonidagi umumbadiiyatga daxldor ko‘chma syujetlar haqida ma’lumot berish asosida o‘quvchilarni badiiy tahlilga jalb qiladi. Avvalo ko‘chma syujet, ramzlar, timsollar va obrazlar haqida tasavvur beradi. Buning uchun dostonidan berilgan parchani mutolaa qilishdan avval o‘quvchilarga quyidagicha

ma'lumotlarni yetkazish to'g'ri bo'ladi.

Doston qahramonlari Hakimbek, Qaldirg'och va Barchin Oy Shohimardon piri mozorida qirq kunlik iltijo bilan tilab olinadi. Ularning tug'ilishi va ularga Shohimardon piringing ism qo'yishi tasviri, o'sha holatdagi qahramonlarning ruhiy situatsiyasini tabiat hodisalari bilan berilishi dostondagi milliy e'tiqod chizgisi ekanini o'quvchilar bilishi kerak. Aynan shu o'rinda g'ayrioddiy tug'ilish motivi namoyon bo'ladi. "Alpomish" shunday mahorat bilan tasvirlanganki, bu tasvirlar baayni hayotning ikir-chikirlarini nazardan qochirmagan ulug' rassomning asari singari ko'z oldingizda gavdalanadi.

Dostonda berilgan har bir obyekt va uning atrofida bo'layotgan voqe-hodisalar sub'ektning ilohiyligini, uning oddiy odam emasligidan dalolat beradi.

Jahon adabiyoti asarlariga nazar solinsa, asardan asarga ko'chib yuruvchi syujetlar borligining guvohi bo'lish mumkin. Dastlab g'ayrioddiy tug'ilish, alplik kuchini namoyon etish, tutqunlik va raqib ustidan g'alaba. Bu dunyo adabiyotining barcha turlariga xos jihat. Masalan, Hakimbek etti yoshida o'n to'rt botmonlik brinch yoyini tortib, alplik maqomiga erishadi va unga Alpomish deb ism qo'yadilar. Aynan mana shu motiv o'quvchilar filmini tomosha qilgan "Illiada" asarida Axillas (shuxrat uchun hayotini jangu jadallarga tikadi. Onasi Axillesni do'zah olovida tovonidan ushlab toblaydi va u alplik maqomiga erishadi), "SHox Edip"dagi Edip(yovuz bashorat sabab ota-onasidan uzoqda ulg'ayadi, keyinchalik afsungar maxluqni engadi), hind eposi "Mahabxarata"dagi Krishna (yetti yoshida to'pni olish uchun dengizga tushadi va dengiz ma'budi bilan kurashda yengib, alplik maqomini oladi) obrazlariga ishoraviy berilgan tushuncha, o'quvchilar bu motivni teranroq anglashlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari Firdavsiyning "Shoxnoma"sidagi Zol va Suxrob, Rustam obrazlarining o'ziga xosligini ham gapirib berish foydadan holi bo'lmas, aksincha, o'quvchi o'sha asarlarni o'zi qidirib topib, mutolaa qilishiga turtki beradi. Ushbu ma'lumotlar 15 daqiqa davomida o'quvchilarga havola etiladi. Parchadan mutolaa uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

Uyga vazifa sifatida "Alpomish" dostoni asari asosida yaratilgan kinofilmni

tomosha qilish va unda ishtirok etgan qahramonlarni adabiyot daftariga belgilash topshiriladi.

Adabiyot muallimi mavzuning **to'rtinchi soatida** dostondagi ramz va timsollar haqida ma'lumot berishi kerak. Dastavval, o'quvchilar Usmon Azim tomonida yaratilgan kinosenariy asosida olingan kino taassurotlari va ular belgilagan obrazlar orqali tahlil boshlanadi. O'qituvchi har bir o'quvchi so'zini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Chunki ko'rib olgan bilimni har bir individ atrofdagilarga ulashgisi, taassurotlarini gapirib bergisi keladi. O'qituvchi o'quvchidagi bu hislatni inobatga olmas ekan, o'quvchi keyingi saboqlarda sovuqqonlik bilan tinglaydi yoki umuman ishtirok etmay qo'yaveradi. O'quvchilarga uy vazifasi topshiriqlari namoyishi uchun o'qituvchi 10-15 daqiqani sarflashi mumkin.


Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning vazifalariga umumiy xulosa yasab, asardaning navbatdagi jihatlarini tahlil qilishga o'tadi.

Bundan tashqari dostondagi badiiy obraz va timsollar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish ko'zda tutilishi kerak. Nazariy ma'lumot va tushunchalarni bevosita badiiy matnga tayangan holda etkazish g'oyat muhimdir. Matndan ayri nazariy ma'lumot o'quvchilarni chalg'itib, asar badiiy mantig'ini to'liq anglashlariga yo'l qo'ymaydi. Bildirilgan ilmiy xulosa o'rganilgan matnning o'quvchilar ongida saqlanib qolishiga xizmat qiladi.


Asardagi yana bir jihat shundaki, bu muhabbat – kuch – davlat. Muhabbat – bu qahramonning ma'naviyatini ta'minlaydi. Muhabbati bor qahramon buyuk va ezgu ishlarni qilishga qodir. Ishq-muhabbat uni ilhomlantiradi. Kuch – hokimyatni bo'ysundiradi. Agar hokimyat tarqoq bo'lsa, qahramon bunday to'siq oldida kuchsiz qoladi. Davlat esa millatni birlashtirish uchun eng kerakli narsa. Bularning sosida esa alp – qahramon turadi. Alpomish nafaol holda Qo'ng'irotda yurganida Barchinoyning maktubi uning qalbiga ishtiyoq soladi va u Boychiborni egarlab, olisdagi Toychixon yurti Qalmoqqa boradi. U erda ulkan to'siqqa uchraydi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. To'siq qanday holatda alpga qarshi chiqadi? Qachonki kuch, davlat va aql birlashganda alpga qarshi to'siqqa aylanadi. Dostonda kuch – 90 alp, davlat – Toychixon, aql – Suhayl kampir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Shuni nazarda tutgan holda dostonidagi an'anaviy uchlik belgilanadi.



Bu uchlik esa dunyoning yaratilishi bilan bog'liq mifologiya (o'qituvchi buni afsona, rivoyat tarzida tushuntirishi mumkin) borib tutushgan.



Mumtoz adabiyotda oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi raqib – bu “nafs” ramzi orqali beriladi. Bu ramz tasavvuf adabiyotining etakchi obrazlaridan biri. Xalq og'zaki ijodining mumtoz adabiyotdan farqi ham shunda. Sababi xalq asarlarida obrazlar real voqelikda mavjud narsalar, hodisalar orqali tasvirlanadi. Raqibini yenggan qahramon eng oliy mukofot visolga erishadi.

Alpomishga muhabbati kuch berib, barcha alplarni “yiqadi” va qaylig'i bilan o'z eliga qaytadi, ammo Boysun xalqining Qalmoqshoh zulmiga giriftor ekanidan xabar topib, ularni qutqarishga urinadi. Natijada yetti yillik tutqunlikda yashaydi. Qo'ng'irotda elida Ultontoz (Boybo'ri kanizagining farzandi) Barchinga uylanib, elga hukmdor bo'lishga urinayotgan edi. Buning uchun u barcha iflosliklarga qo'l urgan, elda notinchlik hokim edi. Alpomish tutqunlikdan qutulib, Qo'ng'irotda qaytishi va Davlatni birlashtirishi bilan dostonidagi ramzlar va timsollarni o'rganishga qaratilgan soat yakunlanadi.

Asosiy ma'lumotlar berilgan qism 25-28 daqiqada beriladi. Yangi

ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish davomida turli sxemalardan foydalanish, "Alpomish" matni asosida yaratilgan multfilm va kinofilmdan parchalar ko'rsatish mumkin. Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi uyga vazifa sifatida "Nima uchun Barchinga Qalmoqning barcha alplari ko'ngil qo'ydi?", "Asardagi Yortiboy obraziga ta'rif bering" singari savollar beriladi. O'qituvchi to'rtinchi saboq asosida berilgan tushuncha va ta'riflarga suyanib, vazifani bajarishlari kerak bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Alpomish" dostonini o'rta maktablarda o'qitilishi xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolini yosh avlodga namuna qilib ko'rsatish, dostonida berilgan badiiy haqiqatlarni yosh avlodga tushuntirish orqali ma'nan barkamol, ruhan kuchli kelajak avlodni tarbiyalash adabiyot muallimi zimmasidagi vazifa, ma'suliyatli burchdir. yurtboshimiz aytganlariday, *"ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga etkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi"*³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch". Ma'naviyat. –T., 2010 y.
2. Uzoq Jo'raqulov, "Hududsiz jilva", -T.: «Fan», 2006 y.
3. "Tilshunoslikka ilk qadam", -Toshkent, 2011 yil.
4. Bahodir Sarimsoqov, "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati", -T.: "o'qituchi", 1979 y.
5. Otash Holmirzaev, "Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi", Namangan nashriyoti, 1991 y.

³ Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch". Ma'naviyat. –T., 2010 y 34-35.